# O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI VA DRAYVERLARI

**Rustamova Feruza Furkatovna**

*Buxoro xalqaro universiteti, ikkinchi bosqich magistranti*

rustamovaferuza014@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va asosiy drayverlari tahlil qilinadi. Xususan, investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni modernizatsiya qilish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda eksport salohiyatini kengaytirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishning ahamiyati yoritilgan. Maqola mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshlikni oshirishda strategik yo‘nalishlarning o‘rnini ko‘rsatib beradi.

**Kalit so‘zlar:** *Iqtisodiy o‘sish, O‘zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiy drayverlar, investitsiyalar, modernizatsiya, sanoat, raqamli iqtisodiyot, eksport salohiyati, innovatsiyalar, texnologiyalar, kichik biznes, tadbirkorlik.*

# НАПРАВЛЕНИЯ И ДРАЙВЕРЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА В УЗБЕКИСТАНЕ

**Рустамова Феруза Фуркатовна**

*Бухарский Международный университет, магистрант второго курса*

rustamovaferuza014@gmail.com

**Аннотация:** В данной статье будут проанализированы направления и основные драйверы экономического роста в Узбекистане. В частности, особое внимание уделяется процессам привлечения инвестиций, модернизации промышленности, развитию цифровой экономики и расширению экспортного потенциала. Также освещается важность поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства, диверсификации сельского хозяйства и внедрения инновационных технологий. В статье показана роль стратегических направлений в обеспечении экономической стабильности страны и повышении ее конкурентоспособности.

**Ключевые слова:** *Экономический рост, экономика Узбекистана, экономические драйверы, инвестиции, модернизация, промышленность,*

*цифровая экономика, экспортный потенциал, инновации, технологии, малый бизнес, предпринимательство.*

# DIRECTIONS AND DRIVERS OF ENSURING ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

**Rustamova Feruza Furkatovna**

*Bukhara International University, second stage graduate*

rustamovaferuza014@gmail.com

**Abstract:** This article analyzes the directions and main drivers of ensuring economic growth in Uzbekistan. In particular, special attention is paid to the processes of attracting investments, modernization of industry, development of the digital economy and expansion of export potential. The importance of supporting small business and private entrepreneurship, diversifying agriculture and introducing innovative technologies is also highlighted. The article will show the place of strategic directions in ensuring the economic stability of the country and increasing competitiveness.

**Keywords:** *Economic growth, economy of Uzbekistan, economic drivers, investments, modernization, industry, digital economy, export potential, innovation, technology, Small Business, Entrepreneurship.*

## KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan buyon iqtisodiy taraqqiyotning turli bosqichlarini bosib o‘tdi. Dastlabki yillarda bozor munosabatlariga o‘tish, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining asosiy vazifasi bo‘lib xizmat qildi. Keyingi bosqichlarda esa milliy iqtisodiyotning modernizatsiyasi, sanoatning qayta qurilishi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini yo‘lga qo‘yish va investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga katta e’tibor qaratildi. Bugungi kunda global iqtisodiy muhitda yuz berayotgan o‘zgarishlar, xalqaro savdo aloqalarining kengayishi, raqamli texnologiyalarning tez sur’atlar bilan rivojlanishi hamda energetika resurslari bozoridagi keskin raqobat O‘zbekistonning kelajakdagi rivojlanish strategiyasini belgilab bermoqda. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlarini aniqlash nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiy o‘sish mamlakat taraqqiyotining eng muhim ko‘rsatkichlaridan biridir. U bevosita milliy daromad hajmi, aholi turmush darajasi, bandlik imkoniyatlari va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli har bir davlat o‘z

iqtisodiyotini rivojlantirishda o‘sishni ta’minlaydigan barqaror omillarni shakllantirishga intiladi. O‘zbekiston uchun esa bu jarayon yanada dolzarb, chunki mamlakat aholisi soni yil sayin ortib bormoqda, resurslardan samarali foydalanish talabi kuchaymoqda va tashqi iqtisodiy aloqalar hajmi sezilarli ravishda kengaymoqda. Bunday sharoitda iqtisodiy o‘sishning asosiy drayverlarini aniqlash, ulardan oqilona foydalanish va yangi yo‘nalishlarni belgilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishda asosiy poydevor vazifasini bajarmoqda. Ayniqsa, investitsiya muhitini yaxshilash, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotlarni diversifikatsiya qilish jarayonlari o‘z samarasini bermoqda. Shu bilan birga, davlat tomonidan ishlab chiqilayotgan rivojlanish strategiyalari milliy iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli o‘sishini ta’minlashga qaratilgan. Masalan, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” doirasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar mamlakatning kelajakdagi iqtisodiy manzarasini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu strategik yondashuvlar nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirish, balki global bozor talablariga moslashishni ham ko‘zda tutadi.

Shu o‘rinda iqtisodiy o‘sish tushunchasiga kengroq to‘xtalish lozim. U faqat ishlab chiqarish hajmining ortishi emas, balki iqtisodiyotning sifat jihatidan yangilanishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va yangi bozorlarning ochilishi bilan ham chambarchas bog‘liq. O‘zbekiston sharoitida bu jarayonlar sanoat tarmoqlarini modernizatsiya qilish, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish sohasini kengaytirish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshirilmoqda. Natijada mamlakat iqtisodiyotida sifat jihatidan yangi bosqich kuzatilmoqda.

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi drayverlar turlicha bo‘lishi mumkin. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayrim davlatlarda bu drayverlar tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqalarida innovatsion texnologiyalar, xizmat ko‘rsatish sohasi yoki tashqi savdo aloqalari asosiy o‘sish omili bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston uchun esa barcha yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashgan holda ahamiyat kasb etadi. Masalan, mamlakatning tabiiy resurslarga boyligi iqtisodiy rivojlanish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, yoshlar salohiyatidan foydalanish va yangi bozorlar bilan hamkorlik qilish ham iqtisodiy o‘sishning muhim manbalaridan biridir.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yana bir muhim jihati bu kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashdir. Chunki iqtisodiyotning o‘sishi nafaqat yirik korxonalar faoliyati, balki minglab kichik va o‘rta biznes

subyektlarining samarali ishlashi orqali ham ta’minlanadi. Shu sababli davlat tomonidan kreditlar, soliq imtiyozlari, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur infratuzilmani yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan diversifikatsiyalashuviga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va aholi daromadlarining ortishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasi ham iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biridir. O‘zbekiston agrar mamlakat sifatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash imkoniyatlariga katta ega. Ammo so‘nggi yillarda bu sohada faqat xomashyo ishlab chiqarish emas, balki yuqori qo‘shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlarni eksport qilishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligida samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni ta’minlash imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ham O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki davlat boshqaruvi, moliya tizimi va xizmat ko‘rsatish sohasida ham yangi imkoniyatlar yaratadi. Ayniqsa, elektron tijorat, raqamli to‘lov tizimlari va masofaviy xizmatlarning rivojlanishi iqtisodiy faoliyatni yanada tezlashtiradi va qulaylashtiradi. Shu jihatdan raqamli iqtisodiyot kelajakda milliy iqtisodiyotning eng muhim drayverlaridan biri bo‘lishi kutilmoqda.

O‘zbekistonning iqtisodiy o‘sishi tashqi iqtisodiy aloqalarsiz ham tasavvur etib bo‘lmaydi. Jahon bozoriga integratsiya jarayonlari, xalqaro savdo shartnomalari, transport-logistika infratuzilmasining rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada kuchaytirmoqda. Xususan, Markaziy Osiyodagi geosiyosiy joylashuv O‘zbekistonga qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikni kengaytirish, yangi transport yo‘laklarini shakllantirish va xalqaro savdoda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi. Shu bois tashqi iqtisodiy aloqalar iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim drayveri sifatida qaraladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiy o‘sish har qanday mamlakat taraqqiyotining asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonning barqaror va samarali kechishini ta’minlovchi omillarni, ya’ni drayverlarni aniqlash va o‘rganish masalasi iqtisodiy nazariyada va amaliy siyosatda doimo dolzarb bo‘lib kelmoqda. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar soni ortib bormoqda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston misolida iqtisodiy o‘sish omillarini chuqur tahlil qilishga bo‘lgan ehtiyoj sezilarli darajada oshgan.

Xalqaro miqyosda ushbu mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ayniqsa iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy omillar – kapital sarmoyalari, inson kapitali, texnologik yangiliklar, eksport salohiyati, institutsional islohotlar va raqamli

texnologiyalar kabi drayverlarga alohida urg‘u berilganini ko‘rsatadi. Masalan, amerikalik iqtisodchi E.Meddison eramizning 500-yilidan boshlab iqtisodiy o‘sish tarixini o‘rganar ekan, qiziqarli natijalarga keldi. So‘nggi, bir yarim yil oralig‘ida bir kishi uchun yetarli bo‘lgan mahsulot chiqarish o‘sishi va aholi o‘sishi orasidagi aniq bog‘liqlik bo‘lgan doiradagi 4 davr ko‘rsatiladi, ya’ni unga agrarianizm (500–1500-yillar), rivojlangan agrarianizm (1500–1700-yillar), savdo kapitalizmi (1700–1800-yillar), zamonaviy kapitalizm (1820–1980-yillar) kabi davrlar kiradi [1]. Amerikalik yana bir tadqiqotchi, iqtisodiy o‘sishni tushuntirishga miqdoriy yondashuv asoschisi S.Kuznets Angliya, Germaniya, AQSH kabi mamlakatlardagi iqtisodiy o‘sish sur’atlari tezligi sanoat burilishi va kapitalizmning yetakchi iqtisodiy tizimga aylangan davri bilan bog‘liq deb hisoblanadi. Kapitalizm mohiyatan, kapitalistik rivoj- lanish yo‘lida turgan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishida o‘zakli o‘zgarish bilan ta’minlaydigan birinchi iqtisodiy tizim bo‘lib qoldi [2]. K.Marks G‘arb iqtisodiy o‘sishini tushuntirishda raqobatning harakatlanuvchi kuchlari, psixologik motivatsiya, xarajat ketidan quvishga katta ahamiyat beradi [3].

I.M.Tenyakov o‘zining “Zamonaviy iqtisodiy o‘sish: manbalari, omillari, sifati” nomli monografiyasida turli iqtisodiy maktablarning “o‘sish” va “rivojlanish” tushunchalariga bergan ta’rif va talqinlarini batafsil tahlil etar ekan, u iqtisodiy maktablarni “o‘sish” va “rivojlanish” talqinlariga munosabati tamoyili bo‘yicha tizimlashtiradi [4].

Mahalliy olimlarimizdan Sh.Sh.Shodmonov o‘zining “Iqtisodiyot nazariyasi” asarida Gegelning taraqqiyotga bergan ta’rifini sharhlab, uni soddillikdan murakkablikka, quyi pog‘onadan yuqoriga tomon yo‘naltirilgan jarayon sifatida talqin etadi. Bu harakat shakliy jihatdan o‘sish va sifat jihatidan o‘zgarishni anglatar ekan, Gegel nuqtayi nazarida taraqqiyot jamiyat va hodisalarning izchil rivojlanishining dialektik ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi [5]. Shuningdek, T.T.Jo‘rayev va M.A.Hamdamov iqtisodiy o‘sishning drayverlarini tahlil qilishda innovatsiyalar, investitsiyalar va inson kapitalining roliga alohida urg‘u beradi. Ularning fikriga ko‘ra, “Iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari – bu innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mehnat resurslarini shakllantirishdir”. Mualliflar iqtisodiy o‘sishning barqaror bo‘lishi ko‘p jihatdan mazkur drayverlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liqligini ta’kidlaydi [6]. Ularning yondashuvi bozor iqtisodiyotida kompleks rivojlanishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari Sh.X.Tashmatov o‘zining “Iqtisodiy ta’limotlar tarixi” asarida iqtisodiy tafakkur shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan yetuk mutafakkirlarning nazariy qarashlarini ilmiy yondashuv asosida tahlil qiladi. Ushbu manbada A. Smit, F. Kene, D. Rikardo kabi mashhur iqtisodchilar tomonidan ilgari surilgan iqtisodiy konsepsiyalar va ularning tadqiqot natijalari keng yoritilgan. Xususan, A. Smit o‘z

ilmiy ishlanmalarida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini markaziy mavzuga aylantirib, bu maqsadga erishish yo‘lida turli nazariy asoslarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratgan [7].

M.A.Mamatov iqtisodiy o‘sishning harakatlantiruvchi omillarini tahlil qilar ekan, innovatsiyalar, investitsiyalar va inson kapitaliga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, “Iqtisodiy o‘sishning drayverlari – bu iqtisodiy faoliyatni faollashtiruvchi, yalpi ichki mahsulot hajmini ko‘paytiruvchi va barqaror rivojlanishni ta’minlovchi asosiy omillardir”. Muallifga ko‘ra, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalar, ilmiy-texnik taraqqiyot va samarali boshqaruv mexanizmlari iqtisodiy o‘sishning muhim manbalariga aylanmoqda. Bu omillar orqali mamlakatlar o‘z raqobatbardoshligini kuchaytiradi [8].

Yuqorida keltirilgan manbalarga qaramasdan respublikamizda iqtisodiy o‘sishning mustahkam drayverlarini aniqlash va rivojlantirish borasida muammolarning mavjudligini dissertatsiya mavzusining dolzarbligini bildiradi.

## METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzuda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlarini ilmiy asosda tahlil qilishga xizmat qiladi. Metodologiyada nazariy va amaliy yondashuvlar uyg‘unlashtirilib, iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash maqsad qilingan. Buning uchun iqtisodiy adabiyotlar, milliy va xalqaro tajribalar, davlat strategik hujjatlari hamda statistik ma’lumotlar asos qilib olingan. Analitik yondashuv orqali so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligi va ularning iqtisodiy o‘sishga qo‘shgan hissasi o‘rganilgan. Empirik tadqiqotlarda rasmiy statistik ko‘rsatkichlar, iqtisodiy o‘sish sur’atlari, investitsiya hajmi, eksport-import balansi va ishbilarmonlik muhiti kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil orqali O‘zbekiston tajribasi boshqa mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirilib, samarali drayverlar aniqlangan. Metodologiyada tizimli yondashuv qo‘llanib, iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda davlat siyosati, xususiy sektor faolligi, investitsion muhit va innovatsion rivojlanish kabi tarkibiy elementlarning o‘zaro bog‘liqligi ochib beriladi. Natijada, ilmiy izlanishlar asosida barqaror o‘sish yo‘nalishlarini aniqlash va ularni amaliyotga tadbiq etish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiyotni rivojlantirishda turli bosqichlarni bosib o‘tdi. Har bir bosqichda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholining turmush darajasini yaxshilash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish asosiy vazifa qilib belgilandi. Bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni dastlab iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, keyinchalik esa rivojlanishning yangi yo‘nalishlarini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘ldi. Bugungi kunda mamlakat oldida turgan eng asosiy

masalalardan biri – iqtisodiy o‘sishning barqaror va izchil bo‘lishini ta’minlash, iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni keng tatbiq etish, shuningdek, ijtimoiy sohada ham samarali natijalarga erishishdir.

Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda O‘zbekistonning ichki imkoniyatlari juda katta. Avvalo, mamlakatning geografik joylashuvi Markaziy Osiyoning markazida bo‘lib, tranzit va logistika imkoniyatlarini kengaytirishga qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, tabiiy resurslarning ko‘pligi, yer-suv resurslari, yosh va mehnatga layoqatli aholining salmog‘i yuqoriligi, shuningdek, iste’mol bozorining hajmi iqtisodiy rivojlanish uchun qudratli asosdir. Shu bilan birga, davlat tomonidan ishlab chiqilgan strategik dasturlar, xususan, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi mamlakat iqtisodiyotini uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda. Mazkur strategiyada barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash orqali aholi farovonligini oshirish, sanoatning drayver sohalarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyotga o‘tish, yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish kabi yo‘nalishlar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonining “Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash” deb nomlangan 2-bandi “Sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish” bo‘yicha 48-maqsadida iqtisodiy o‘sish drayverlari sifatida vazifasi alohida belgilab berilgan [9]:

- Sanoatda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish va 2,5 millionta yuqori daromadli ish o‘rinlarini yaratish;

- Yirik korxonalar tomonidan import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish va hududiy korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini yo‘lga qo‘ygan korxonalarni faol rag‘batlantirish tizimini joriy qilish;

- Har bir tumanda zamonaviy texnologik sanoat zonalarini tashkil etish;

- Respublikaning 60 ming kvadrat kilometr maydonida geologiya-qidiruv ishlarini amalga oshirish;

- To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun’iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

- Qurilish materiallarini ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish va yangi turdagi energiya tejamkor materiallarini ishlab chiqishni kengaytirish;

- Farmatsevtika sohasida dori vositalariga ehtiyojni 70 foizga ichki ishlab chiqaruvchilar hisobiga qoplash;

- Charm-poyabzal sanoatiga 30 dan ortiq nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilish hisobiga qo‘shilgan qiymatni 5 barobarga oshirish;

- Mebel mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 3 baravarga ko‘paytirish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasining ushbu maqsadlari mamlakat sanoat salohiyatini keskin oshirishga qaratilgan bo‘lib, ular iqtisodiy o‘sishni tezlashtirish va aholining daromadlarini barqaror oshirishga xizmat qiladi. Drayver sohalarda qo‘shilgan qiymat hajmini ko‘paytirish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda texnologik zonalarni tashkil etish sanoat tarmoqlarini raqobatbardosh qiladi. To‘qimachilik, qurilish materiallari, farmatsevtika va charm-poyabzal sohalaridagi maqsadlar esa diversifikatsiyalash va innovatsiyalarni jadallashtirishga yo‘naltirilgan. Natijada, yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratilib, iqtisodiy mustaqillik mustahkamlanadi.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish drayverlarini shakllantirish va ularni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-avgustdagi “Tuman (shahar)larda iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 495-sonli Qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, tuman (shahar)larda iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq quyidagi vazifalar amalga oshirishi belgilangan:

- drayver loyihalarni shakllantirish, kelishish va tasdiqlash;
- drayver loyihalarni moliyalashtirish;
- drayver loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash, muvofiqlashtirish va monitoring qilish.

Tuman (shahar)larda iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomda drayver loyihalarni shakllantirish, kelishish va tasdiqlash sxemasi quyidagi ko‘rinishda keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Drayver loyihalarni shakllantirish, kelishish va tasdiqlash sxemasi [10]**

| **Bosqichlar** | **Mas’ullar** | **Tadbirlar** | **Amalda oshirish muddati** |
|---|---|---|---|
| 1-bosqich | Tuman (shahar) hokimliklari | Hududning iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalari ro‘yxatlarini shakllantirib, mahalliy manfaatdor vazirlik va idoralarning hududiy bo‘linmalariga yuboradi | Har yili 1-noyabrgacha |
| 2-bosqich | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va | Kelishilgan drayver loyihalarni ko‘rib chiqish uchun kiritadi | 1 hafta |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | Toshkent shahar hokimliklari | | |
| | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Drayver loyihalarni ko‘rib chiqish va kelishish uchun Iqtisodiyot va moliya vazirligiga kiritadi | 10 ish kuni ichida |
| 3-bosqich | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi | Ko‘rib chiqilgan drayver loyihalar bo‘yicha xulosa tayyorlab, tasdiqlash uchun Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboradi | 15 ish kuni ichida |
| 4-bosqich | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari | Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan drayver loyihalarni tasdiqlaydi | 5 ish kuni ichida |

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, drayver loyihalarni shakllantirish va tasdiqlash aniq belgilangan mexanizm asosida olib boriladi. Bu tizimda har bir bosqich o‘z vazifasini bajaradi va umumiy jarayon izchilligi ta’minlanadi. Tuman yoki shahar hokimliklari hududning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda loyihalar tayyorlaydi va yuqori organlarga taqdim etadi. Viloyat va respublika miqyosida esa bu loyihalar puxta ko‘rib chiqilib, kelishiladi va tegishli xulosalar tayyorlanadi. Iqtisodiyot va moliya vazirligi ushbu loyihalarning iqtisodiy asoslarini tahlil qilib, ularni tasdiqlash uchun hukumat darajasiga chiqaradi. Eng so‘nggi bosqichda esa Vazirlar Kengashi va hududiy hokimliklar tasdiqlash jarayonini yakunlaydi. Shu tarzda, bosqichma-bosqich tashkil etilgan tizim nafaqat loyihalarning iqtisodiy asoslanganligini, balki ularning hududlar rivojiga bevosita ta’sirini ham nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va sanoat salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlari mamlakat taraqqiyotining asosiy ustunlari sifatida belgilangan bo‘lib, ular milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo‘lishni ta’minlashga qaratilgan. Bu yo‘nalishlar doirasida sanoatni modernizatsiya qilish, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, infratuzilmani kengaytirish hamda raqamli iqtisodiyotning salohiyatidan keng foydalanish kabi ustuvor vazifalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, inson

kapitaliga sarmoya kiritish, ta’lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish orqali ham barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish rejalashtirilgan. Investitsiyalarni jalb qilish, eksportni kengaytirish va hududiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirish ham iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlari hisoblanadi. Demak, O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish strategiyasida nafaqat ishlab chiqarish ko‘lamini kengaytirish, balki iqtisodiyotning samaradorligini oshirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish va innovatsiyalarni qo‘llash orqali uzoq muddatli barqaror o‘sishga erishish maqsad qilib qo‘yilgan.

O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlarini quyidagi jadvalda batafsil ko‘rib chiqamiz (2-jadval).

**2-jadval**

**O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlari**[1]

| **Yo‘nalishlar** | **Drayverlar** | **Amalga oshirish mexanizmlari** |
|---|---|---|
| Sanoatni modernizatsiya qilish | Qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, import o‘rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarish | Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sanoat zonalari tashkil etish, yirik korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish |
| Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish | Yuqori hosilli ekinlar yetishtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash | Agrotexnologiyalarni rivojlantirish, suv resurslaridan samarali foydalanish, klaster tizimini kengaytirish |
| Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini rivojlantirish | Turizm, transport-logistika, axborot-kommunikatsiya xizmatlarini kengaytirish | Zamonaviy infratuzilma qurish, xizmat sifati va raqobatbardoshligini oshirish |
| Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish | Elektron tijorat, sun’iy intellekt, axborot xavfsizligi | Raqamli infratuzilmani kengaytirish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash, IT-kadrlar tayyorlash |
| Inson kapitaliga sarmoya | Ta’lim sifati, sog‘liqni saqlash tizimi, ijtimoiy himoya | Zamonaviy ta’lim dasturlari, raqamli tibbiyot, mehnat bozorida yangi ko‘nikmalarni shakllantirish |
| Energetika va yashil iqtisodiyot | Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish | Quyosh va shamol elektr stansiyalari qurish, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish |

[1] Muallif tomonidan tayyorlandi

| | | |
|---|---|---|
| Hududiy rivojlanish | Hududlarning sanoat salohiyatini ishga solish | Har bir tumanda sanoat zonalari yaratish, mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash |
| Investitsiyalar va tashqi savdo | To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, eksportni kengaytirish | Xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlik, yangi eksport bozorlari o‘zlashtirish, soliq va bojxona imtiyozlari |

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan yo‘nalish va drayverlar O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini kompleks tarzda ta’minlashga qaratilgani ko‘rinadi. Sanoatni modernizatsiya qilish orqali yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishi nafaqat ichki ehtiyojni qoplash, balki eksportni kengaytirishga ham xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligi sohasidagi islohotlar esa oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va eksportbop mahsulotlarni ko‘paytirishga imkon beradi. Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining kengayishi bandlikni oshirish va iqtisodiyotning barqaror daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalar esa zamonaviy global iqtisodiy jarayonlarga integratsiyalashish imkonini beradi. Inson kapitaliga yo‘naltirilgan siyosat uzoq muddatli o‘sishning asosiy omili hisoblanib, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimidagi islohotlar barqaror ijtimoiy muvozanatni ta’minlaydi. Energetika va yashil iqtisodiyot yo‘nalishi esa ekologik barqarorlikni ta’minlab, energiya mustaqilligini oshiradi. Hududiy rivojlanish va investitsiyalarni jalb qilish iqtisodiy faollikni keng hududlarga yoyadi va mamlakatning umumiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtiradi. Shu tariqa, har bir yo‘nalish o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning uyg‘unligi O‘zbekistonni uzoq muddatli barqaror o‘sishga olib boruvchi muhim drayverlar sifatida qaraladi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash yo‘nalishlari va drayverlarini belgilash milliy rivojlanish strategiyasining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Maqola davomida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi uchun ichki imkoniyatlar bilan bir qatorda tashqi omillardan ham samarali foydalanish lozim. So‘nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar natijasida investitsion muhit yaxshilanmoqda, eksport salohiyati kengaymoqda, sanoat tarmoqlari modernizatsiya qilinmoqda va raqamli iqtisodiyot rivojlanmoqda. Biroq, global iqtisodiy inqirozlar, xomashyo bozorlaridagi o‘zgarishlar va tashqi talabning pasayishi kabi xavf-xatarlar ham mavjud. Shu sababli, iqtisodiy o‘sishni barqarorlashtirish bo‘yicha aniq drayverlar va yo‘nalishlarni belgilash dolzarbdir.

Tahlillar asosida turli xil takliflar shakllandi. Birinchidan, investitsion muhitni yanada yaxshilash va sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratish muhimdir. Bu borada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bir qatorda mahalliy kapitalni samarali safarbar etish, xususiy sektorni rag‘batlantirish va investitsion xavfsizlikni ta’minlash zarur. Ikkinchidan, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish orqali texnologik yangilanishlarni jadallashtirish talab etiladi. Ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida uzviy hamkorlikni mustahkamlash, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va innovatsion infratuzilmani kengaytirish bu jarayonda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, eksport salohiyatini oshirish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarish, xalqaro bozorlarda milliy brendlarni ilgari surish va transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish bu borada muhim yo‘nalishlardir. To‘rtinchidan, sanoatni diversifikatsiya qilish va qishloq xo‘jaligi sektorini modernizatsiya qilish iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda alohida ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqarishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta ishlash sanoatini rivojlantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka erishish mumkin.

Beshinchidan, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Elektron hukumat tizimini takomillashtirish, elektron savdo va to‘lov tizimlarini rivojlantirish, shuningdek, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar texnologiyalarini joriy etish nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki xizmatlar sektorida ham yangi imkoniyatlarni yaratadi. Oltinchidan, iqtisodiy o‘sishni hududiy kesimda ta’minlashga alohida e’tibor qaratilishi kerak. Har bir hududning resurs salohiyati va ustuvor tarmoqlarini hisobga olgan holda rivojlanish dasturlarini amalga oshirish, infratuzilmani yaxshilash va mahalliy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash muhimdir.

Umuman olganda, O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun investitsion muhitni mustahkamlash, innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, eksport imkoniyatlarini kengaytirish, sanoat va qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda hududiy salohiyatni to‘liq safarbar etish zarur. Taklif etilgan ushbu chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilsa, mamlakat iqtisodiyoti barqaror va inklyuziv o‘sishga erishib, xalq farovonligini oshirishda muhim natijalarga erishiladi. Shu bois, ilmiy asoslangan yondashuvlar, zamonaviy boshqaruv usullari va xalqaro tajribani mahalliy sharoitga moslashtirish O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishini ta’minlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Maddison A. The World Economy: Historical Statistics. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), 2003. 274 pages.

2. Kuznets S. Modern Economic Growth: Rate, Structure and Spread. Yale University Press, 1966. 524 pages.

3. Маркс К. Капитал. Критика политической экономии. Том I. – Москва: Политиздат, 1978. – 902 с.

4. Теняков И.М. Современный экономический рост: источники, факторы, качество. Монография. - М.: МГУ, 2015.

5. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi: Darslik. – T.: «LESSON PRESS» nashriyoti, 2021. 768 bet.

6. Jo‘rayev T.T., Hamdamov M.A. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2024. 504 bet.

7. Tashmatov Sh.X. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 - 504 b.

8. Mamatov M.A. Iqtisodiy o‘sish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 - 384 b.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 5-avgustdagi “Tuman (shahar)larda iqtisodiy o‘sishga turtki beruvchi drayver loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 495-sonli Qarori.